

INSON QADR-QIMMATI – ENG OLIY QADRIYAT

10

• 2025-yil 3-aprel • № 14

Postda
На посту

MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT DARSI

INSON QADR-QIMMATI – ENG OLIY QADRIYAT

Inson moddiy qiyinchiliklarga chidashi mumkin, lekin nohaqlikka,adolatsizlikka chiday olmaydi. Shuning uchun ham xalqimiz tomonidan «Qornimga emas, qadrimga yig'layman» degan purma'no naql to'qilgan. Lekin ayni paytda qadr-qimmatni moddiyatdan butunlay ayro holda ham tasavvur etib bo'lmaydi.

Shu boisdan ham mamlakatimiz Prezidenti «Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayat kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatlari tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz», – degan edilar.

Bugungi kunda insonning qadr-qimmati, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash davlatimizning ustuvor vazifasiga aylandi. «Inson qadri uchun» degan hayotbaxsh g'oya asosida «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan tamoyil joriy etildi.

Ana shu talabdan kelib chiqib so'nggi yillarda jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekiston inson sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblangan mamlakat bo'lishi uchun barcha zaruriy chora-tadbirlar ko'rilyapti. Jumladan, ichki ishlar orxonalarini xodimlari vurtoshishlarimiz tinch va xavfsiz

xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi to'g'risidagi qoida o'rinni olgan. Shuningdek, insonning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat ekanligi ta'kidlangan. Konstitusiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko'paydi.

Buning amaldagi ijobosini ahollining kamta'minlangan qatlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi yaratilganligida ko'rish mumkin. Kambag' allikni qisqartirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ko'riliapti. Yangi uy-joylar, maktablar va maktabga-



belgilandi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda kompleks dastur ishlab chiqildi. 2025-yilda uni amalga oshirish uchun turli manbalarдан 10 milliard AQSH dollarasi ajratish rejalashhtirilgan. «Bu yil kichik va o'rta biznesga 120 trillion so'm resurs beryapmiz. Buncha katta mablag' ilgari hech qachon bo'lmagan», – dedi davlat rahbari.

Yurtboshimiz O'zbekiston xalqiga Yangi yil tabridiga «Muxtasar aytganda, «Inson qadri uchun, inson baxti uchun!» degan olijanob maqsadni barchamiz



Inson moddiy qiyinchiliklarga chidashi mumkin, lekin nohaqlikka,adolatsizlikka chiday olmaydi. Shuning uchun ham xalqimiz tomonidan «Qornimga emas, qadrimga yig'layman» degan purma'no naql to'qilgan. Lekin ayni paytda qadr-qimmatni moddiyatdan butunlay ayro holda ham tasavvur etib bo'lmaydi.

Shu boisdan ham mamlakatimiz Prezidenti «Albatta, inson qadri biz uchun qandaydir mavhum, balandparvoz tushuncha emas. Inson qadri deganda, biz, avvalo, har bir fuqaroning tinch va xavfsiz hayat kechirishini, uning fundamental huquq va erkinliklarini ta'minlashni nazarda tutamiz. Inson qadri deganda, biz har bir fuqaro uchun munosib turmush sharoiti va zamonaviy infratuzilma tashkil etishni, malakali tibbiy xizmat ko'rsatish, sifatlari tizimi, sog'lom ekologik muhit yaratib berishni tushunamiz», – degan edilar.

Bugungi kunda insonning qadr-qimmati, huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash davlatimizning ustuvor vazifasiga aylandi. «Inson qadri uchun» degan hayotbaxsh g'oya asosida «Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak» degan tamoyil joriy etildi.

Ana shu talabdan kelib chiqib so'nggi yillarda jamiyat hayotining barcha sohalarida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Yangi O'zbekiston inson sha'ni va qadr-qimmati oliy qadriyat hisoblangan mamlakat bo'lishi uchun

barcha zaruriy chora-tadbirlar ko'ril yapti. Jumladan, ichki ishlar organlari xodimlari yurtdoshlarimiz tinch va xavfsiz hayot kechirishini ta'minlash yo'lida xizmat qilyapti. Mahalla yettiligi esa aholining muammolarini «xonadonbay» asosda o'rga nib, hal etyapti.

Yurtimizda insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizligini ta'minlash, uning huquqlari va qonuniy manfaatlariga zid keladigan har qanday harakatlarga qarshi kurashish eng dolzarb vazifalar sirasiga kiradi. Ushbu yo'nalishda Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili, Bolalar ombudsmani, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik subyektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil va boshqa milliy institutlar faoliyat ko'rsatib kelmoqda.

Endilikda odamlar tashvishi bilan yashash, xalqimizning qonuniy talab-istaklari va xohish-irodasini ro'yobga chiqarish davlat organlari faoliyatini baholashning eng muhim mezoniga aylanib boryapti. Muayyan hududlar bo'yicha barcha muhim qarorlar aholi ishtirokida qabul qilinishi kerak. Mamlakat miqyosida esa ushbu jarayonga fuqarolik jamiyatni institutlarini jalb etish xalqchil qarorlar qabul qilishda yaxshi samara beradi.

Mamlakatimiz yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning muqaddimasida O'zbekiston Respublikasi inson huquq va erkinliklariga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiq ekanligi e'lon qilingan. Asosiy qonunimizdan davlat hokimiyyati xalq manfaatlarini ko'zlab amalga oshirilishi to'g'risidagi qoida o'rinn olgan. Shuningdek, insonning hayoti, erkinligi, sha'ni va qadr-qimmati oly qadriyat ekanligi ta'kidlangan. Konstitutsiyada davlatning ijtimoiy sohadagi majburiyatlariga taalluqli normalar 3 barobar ko'paydi.

Buning amaldagi ijrosini aholi ning kam ta'minlangan qatlarni ijtimoiy himoya qilish tizimi yaratilganligida ko'rish mumkin. Kambag'allikni qisqartirish bo'yicha izchil chora-tadbirlar ko'rilyapti. Yangi uy-joylar, mакtab lar va maktabga cha ta'lim tashkilotlari qurilyapti, madaniyat va sport maskanlari bunyod etilmoq da. Yurtdoshlarimizning yashash tarzi yaxshilanib, turmushi farovonlashyapti. Yurtimizda yuqori texnologiyali yangi sanoat majmualari, infratuzilmalar va logistika tarmoqlari, avtomobil va temiryo'llar barpo etilmoqda. Sayyohlik sohalari tobora taraqqiy etmoqda.

Jazoni iijo etish muassasalaridan ozod qilingan shaxslarni jamiyatga moslashtirish borasida ham tizimli ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Ular qayta jinoyat sodir etmasliklari uchun kasbga o'qitilyapti, ish bilan ta'minlanyapti, har biriga ijtimoiy yordam ko'rsatilyapti.

Tadbirkorlar uchun yanada keng imkoniyatlar yaratilmoqda. Yoshlarning zamonaviy bilim va kasb-hunar egalari, barkamol bo'lib tarbiya topishlari uchun zarur choralar ko'rilyapti. Xotin-qizlarning ijtimoiy himoyasi kuchaytirilyapti. Harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari har tomonlama qo'llab-quvvatlanyapti.

Shu o'rinda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 19-mart kuni tadbirkorlar bilan bo'lib o'tgan uchrashuvida kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning ustuvor vazifalari muhokama qilindi. Xususan, 2025-yildagi asosiy maqsadlar belgilandi. Ushbu maqsadlarga erishish uchun xalqaro ekspertlar bilan hamkorlikda kompleks dastur ishlab chiqildi. 2025-yilda uni

amalga oshirish uchun turli manbalardan 10 milliard AQSH dollari ajratish rejalashtirilgan. «Bu yil kichik va o'rta biznesga 120 trillion so'm resurs beryapmiz. Buncha katta mablag' ilgari hech qachon bo'lman», – dedi davlat rahbari.

Yurtboshimiz O'zbekiston xalqiga Yangi yil tab rigida «Muxtaras aytganda, «Inson qadri uchun, inson baxti uchun!» degan oljanob maqsadni barchamiz birgalikda amalga oshira miz», degan edilar. Rahbar xodimlariga g'amxo'rlik qilsa, malakali mutaxassislarni qadrlasa, bu uning ana shu yuksak maqsadni amalga oshirishga qo'shgan hissasi bo'ladi. Xodim ham o'z navbatida har tomonlama qulay ish sharoiti yaratgan, qo'l ostidagilarning ijtimoiy himoyasi haqida qayg'urgan rahbarni qadrlashi lozim.

O'zbekiston Qahramoni, Xalq shoiri Abdulla Oripov inson qadr-qimmati haqida topib yozgan edi. Uning «Izhor» she'ri dagi quydag'i satrlarga e'tibor bering-a:

**Qancha diyorlarda sayr etib yurdim,
Qancha manzillarda tuzdim oshyon.
Va buyuk hikmatga axir yuz burdim,
Siylangan joyida azizdir inson.**

**Yurtim, senda ekan nasibam tugal,
Sen o'zing maskanim, sen o'zing shonim.
Sen onam, sen singlim, yorimsan, azal,
Ey, jonim, jahonim – O'zbekistonim.**

Aslida «baxt» va «qadr» tushunchalari egizak. Kimki qadr topsa, u o'zini baxtli his qiladi. Lekin o'z Vatanida qadr topmay, begona o'lkalarda qadrlangan insonning baxti kemtik bo'ladi. «O'zga yurda shoh bo'lguncha, o'z yurtingda gado bo'l» deb bejiz aytishmagan. Shuning uchun har kimga ham o'z diyorida qadr topish nasib etsin.

Bobomurod TOSHEV

15/2025-мавзу

ИНСОН ҚАДР-ҚИММАТИ – ЭНГ ОЛИЙ ҚАДРИЯТ

Инсон моддий қийинчиликларга чидаши мумкин, лекин ноҳақликка, адолатсизликка чидай олмайди. Шунинг учун ҳам халқимиз томонидан «Қорнимга эмас, қадримга йиғлайман» деган пурмаъно нақл тўқилган. Лекин айни пайтда қадр-қимматни моддиятдан бутунлай айро ҳолда ҳам тасаввур этиб бўлмайди.

Шу боисдан ҳам мамлакатимиз Президенти «Албатта, инсон қадри биз учун қандайдир мавҳум, баландпарвоз тушунча эмас. Инсон қадри деганда, биз, аввало, ҳар бир фуқаронинг тинч ва хавфсиз ҳаёт кечиришини, унинг фундаментал ҳуқуқ ва эркинликларини таъминлашни назарда тутамиз. Инсон қадри деганда, биз ҳар бир фуқаро учун муносиб турмуш шароити ва замонавий инфратузилма ташкил этишни, малакали тиббий хизмат кўрсатиш, сифатли таълим, ижтимоий ҳимоя тизими, соғлом экологик муҳит яратиб беришни тушунамиз», – деган эдилар.

Бугунги кунда инсоннинг қадр-қиммати, ҳуқуқлари, эркинликлари ва қонуний манфаатларини таъминлаш давлатимизнинг устувор вазифасига айланди. «Инсон қадри учун» деган ҳаётбахш ғоя асосида «Халқ давлат органларига эмас, давлат органлари халқга хизмат қилиши керак» деган тамойил жорий этилди.

Ана шу талабдан келиб чиқиб сўнгги йилларда жамият ҳаётининг барча соҳаларида изчил ислоҳотлар амалга оширилмоқ да. Янги Ўзбекистон инсон шаъни ва қадр-қиммати олий қадрият ҳисобланган мамлакат бўлиши учун барча зарурий чора-тадбирлар кўрил япти. Жумладан, ички ишлар органлари ходимлари юртдошларимиз тинч ва хавфсиз ҳаёт кечиришини таъминлаш йўлида хизмат қилияпти. Маҳалла еттилиги эса ахолининг муаммоларини «хонадонбай» асосда ўрга ниб, ҳал этяпти.

Юртимизда инсоннинг шаъни ва қадр-қиммати дахлсизлигини таъминлаш, унинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига зид келадиган ҳар қандай ҳаракатларга қарши курашиш энг долзарб вазифалар сирасига киради. Ушбу йўналишда Олий Мажлиснинг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили, Болалар омбудсмани, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Тадбиркорлик субъектларининг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қилиш бўйича вакил ва бошқа миллий институтлар фаолият кўрсатиб келмоқда.

Эндилиқда одамлар ташвиши билан яшаш, халқимизнинг қонуний талаб-истаклари ва хоҳиш-иродасини рўёбга чиқариш давлат органлари фаолиятини баҳолашнинг энг муҳим мезонига айланиб боряпти. Муайян ҳудудлар бўйича барча муҳим қарорлар аҳоли иштирокида қабул https://t.me/manaviyat_va_marifat_darsi

қилиниши керак. Мамлакат миқёсида эса ушбу жараёнга фуқаролик жамияти институтларини жалб этиш халқчил қарорлар қабул қилишда яхши самара беради.

Мамлакатимиз янги таҳрирдаги Конституциямизнинг муқаддимасида Ўзбекистон Республикаси инсон ҳуқуқ ва эркинликларига, миллий ва умуминсоний қадриятларга содиқ эканлиги эълон қилинган. Асосий қонунимиздан давлат ҳокимияти халқ манфаатларини кўзлаб амалга оширилиши тўғрисидаги қоида ўрин олган. Шунингдек, инсоннинг ҳаёти, эркинлиги, шаъни ва қадр-қиммати олий қадрият эканлиги таъкидланган. Конституцияда давлатнинг ижтимоий соҳадаги мажбуриятларига тааллуқли нормалар З баробар кўпайди.

Бунинг амалдаги ижросини аҳоли нинг кам таъминланган қатламини ижтимоий ҳимоя қилиш тизими яратилганинига кўриш мумкин. Камбағалликни қисқартириш бўйича изчил чора-тадбирлар кўриляпти. Янги уй-жойлар, мактаб лар ва мактабга ча таълим ташкилотлари қуриляпти, маданият ва спорт масканлари бунёд этилмоқ да. Юртдошларимизнинг яшаш тарзи яхшиланиб, турмуши фаровонлашяпти. Юртимизда юқори технологияли янги саноат мажмуалари, инфратузилмалар ва логистика тармоқлари, автомобиль ва темирйўллар барпо этилмоқда. Сайёхлик соҳалари тобора тарақкий этмоқда.

Жазони ижро этиш муассасаларидан озод қилинган шахсларни жамиятга мослаштириш борасида ҳам тизимли ишлар амалга ошириб келинмоқда. Улар қайта жиноят содир этмасликлари учун касбга ўқитиляпти, иш билан таъминланяпти, ҳар бирига ижтимоий ёрдам кўрсатиляпти.

Тадбиркорлар учун янада кенг имкониятлар яратилмоқда. Ёшларнинг замонавий билим ва касб-хунар эгалари, баркамол бўлиб тарбия топишлари учун зарур чоралар кўриляпти. Хотин-қизларнинг ижтимоий ҳимояси кучайтириляпти. Ҳарбий хизматчилар ва уларнинг оила аъзолари ҳар томонлама қўллаб-куватланяпти.

Шу ўринда Президентимиз Шавкат Мирзиёевнинг 19 март куни тадбиркорлар билан бўлиб ўтган учрашувида кичик ва ўрта бизнесни ривожлантиришнинг устувор вазифалари муҳокама қилинди. Хусусан, 2025 йилдаги асосий мақсадлар белгиланди. Ушбу мақсадларга эришиш учун халқаро эксперталар билан ҳамкорликда комплекс дастур ишлаб чиқилди. 2025 йилда уни амалга ошириш учун турли манбалардан 10 миллиард АҚШ доллари ажратиш режалаштирилган. «Бу йил кичик ва ўрта бизнесга 120 триллион сўм ресурс беряпмиз. Бунча катта маблағ илгари ҳеч қачон бўлмаган», – деди давлат раҳбари.

Юртбошимиз Ўзбекистон халқига Янги йил таб ригида «Мухтасар айтганда, «Инсон қадри учун, инсон бахти учун!» деган олижаноб мақсадни барчамиз биргаликда амалга ошира миз», деган эдилар. Раҳбар ходимларига ғамхўрлик қиласа, малакали мутахассисларни қадрласа, бу унинг ана шу юксак мақсадни амалга оширишга қўшган ҳиссаси бўлади. Ходим ҳам ўз навбатида ҳар томонлама қулай иш шароити яратган, қўл остидагиларнинг ижтимоий ҳимояси ҳақида қайғурган раҳбарни қадрлаши лозим.

Ўзбекистон Қаҳрамони, Халқ шоири Абдулла Орипов инсон қадр-қиммати ҳақида топиб ёзган эди. Унинг «Изҳор» шеъри даги қўйдаги сатрларга эътибор беринг-а:

**Қанча диёрларда сайр этиб юрдим,
Қанча манзилларда туздим ошён.
Ва буюк ҳикматга ахир юз бурдим,
Сийланган жойида азиздир инсон.**

**Юртим, сенда экан насибам тугал,
Сен ўзинг масканим, сен ўзинг шоним.
Сен онам, сен синглим, ёримсан, азал,
Эй, жоним, жаҳоним – Ўзбекистоним.**

Аслида «баҳт» ва «қадр» тушунчалари эгизак. Кимки қадр топса, у ўзини баҳтли ҳис қиласи. Лекин ўз Ватанида қадр топмай, бегона ўлкаларда қадрланган инсоннинг баҳти кемтик бўлади. «Ўзга юртда шоҳ бўлгунча, ўз юртингда гадо бўл» деб бежиз айтишмаган. Шунинг учун ҳар кимга ҳам ўз диёрида қадр топиш насиб этсин.

Бобомурод ТОШЕВ